


muhofoza qilish organlari o'rtasida doimiy platforma yaratish, sohaga oid dissertatsiya va tadqiqot mavzularini aynan narkobiznesning yangi shakllariga qarshi kurashishning amaliy yechim-

lariga yo'naltirish zarur. Faqatgina mana shunday kompleks va ilmiy asoslangan yondashuv orqali jamiyatni narkotahdidlardan samarali himoya qilish mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. Castells, M. (2010). The End of Millennium. The Information Age: Economy, Society, and Culture. Oxford: Wiley-Blackwell.
2. Volkow, N. D., & Morales, M. (2015). The Brain on Drugs: From Reward to Addiction. Cell, 162(4), 712-725.
3. Sutherland, E. H. (1947). Principles of Criminology. Philadelphia: Lippincott.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 noyabrdagi PF-207-son "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
5. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). World Drug Report, 2025. – Vienna: UNODC Research, 2025.
6. Kristjánsson Á. L., et al. Adolescent substance use prevention: school-based and community-based approaches in Iceland. Child and Adolescent Psychiatric Clinics of North America, 25(3), 437–452.



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI



MIRZAYEV
Jahongir Umirzoqovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim



ABDUXAMIDOV
Gayrat Zaynishevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
ilmiy xodim-tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida strategik rejalashtirishning mazmun-mohiyati, uning huquq-tartibotni ta'minlashda samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimida strategik rejalashtirishning ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi o'rni yoritilgan. Strategik rejalashtirishning asosiy tamoyillari, vazifalari hamda uni amalga oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: strategik rejalashtirish, ichki ishlar organlari, boshqaruv, jinoyatchilik profilaktikasi, xavfsizlik, samaradorlik, davlat boshqaruvi, chora-tadbirlar, ilmiy-tadqiqot, tahlil.

Аннотация. В статье проанализированы сущность стратегического планирования в деятельности органов внутренних дел, его роль в обеспечении правопорядка и влияние на эффективность деятельности. Также освещено значение стратегического планирования в современной системе управления, его роль в координации деятельности органов внутренних дел, обеспечении безопасности и борьбе с преступностью. Научно обоснованы основные принципы, задачи и механизмы реализации стратегического планирования.

Ключевые слова: стратегическое планирование, органы внутренних дел, управление, профилактика преступности, безопасность, эффективность, государственное управление, меры, научные исследования, анализ.

Abstract. The article analyzes the essence of strategic planning in the activities of internal affairs bodies, its role in ensuring law and order, and its impact on operational effectiveness. It also highlights the importance of strategic planning in the modern management system, its role in coordinating the activities of internal affairs bodies, ensuring security, and combating crime. The article scientifically substantiates the main principles, tasks, and implementation mechanisms of strategic planning.

Keywords: strategic planning, internal affairs bodies, management, crime prevention, security, effectiveness, public administration, measures, scientific research, analysis.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan zamon davlat boshqaruvi tizimi oldiga yangidan yangi vazifalar qo'yilmoqda. Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlari faoliyatini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur sohada strategik rejalashtirishni ilmiy asosda tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jamiyatda shiddat bilan sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va jinoyatchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi huquqni muhofaza qiluvchi organlardan tezkor emas, balki istiqbolga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini talab qilmoqda. Strategik rejalashtirish ichki ishlar organlari tizimida kelajakdagi ehtimoliy xavf-xatarlarni oldindan ko'rish va ularga qarshi munosib mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir" [1].

Strategik rejalashtirish – bu uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, ularga erishish mexanizmlarini ishlab chiqish va mavjud resurslardan samarali foydalanish jarayoni. Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish faoliyatning aniq maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlaydi, boshqaruv tizimini takomillashtiradi hamda xizmat samaradorligini oshiradi.

Strategik rejalashtirish davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u muayyan maqsadlarga erishish uchun uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tashqi va ichki muhitni tahlil qilish;
- maqsad va vazifalarni belgilash;
- ustuvor yo'nalishlarni aniqlash;
- resurslarni taqsimlash;
- natijalarni monitoring qilish va baholash.

Ma'lumki, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari

doirasida barcha zarur choralarni ko'rish xodimning majburiyati hisoblanadi [2].

Strategik rejalashtirish aynan ushbu majburiyatlarni bajarish, shu jumladan huquq-tartibotni saqlash, aholi xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish – bu ichki ishlar organlariga qonunchilik bilan yuklatilgan vazifalarni to'liq amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali natijalarni qo'lga kiritish uchun chora-tadbirni belgilab olish demak.

Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish shunchaki hujjatlar to'plami emas, balki tashkilot rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan, uzoq muddatli maqsadlarga erishishga qaratilgan qarorlar majmuidir. U odatiy rejalashtirishdan quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

ilmiy asoslanganlik: ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va prognozlashga tayanadi;

moslashuvchanlik: tashqi muhitdagi o'zgarishlarga (masalan, kiberjinoyatchilikning o'sishi) tezkor javob bera olish imkoniyati;

tizimlilik: barcha bo'linmalarining faoliyatini yagona strategik maqsad atrofida birlashtirish.

Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirishning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Faoliyat samaradorligini oshirish. Strategik rejalashtirish ichki ishlar organlari faoliyatini aniq maqsad va vazifalar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa xizmat faoliyatida tizimlilik va muvofiqlikni ta'minlaydi.

2. Resurslardan oqilona foydalanish. Ichki ishlar organlarida kadrlar, moliyaviy va texnik resurslardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Strategik rejalashtirish resurslarni ustuvor vazifalarga yo'naltirish imkonini beradi.

3. Jinoyatchilikning oldini olish. Strategik tahlil asosida jinoyatchilikning sabab va omillari o'rganiladi hamda profilaktik choralar ishlab chiqiladi. Bu esa huquqbuzarliklarning kamayishiga xizmat qiladi.

4. Zamonaviy tahdidlarga moslashish. Kiberjinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm kabi zamonaviy tahdidlar ichki ishlar organlaridan tezkor va aniq strategiyalarni talab etadi. Strategik rejalashtirish

ushbu xavflarga qarshi samarali choralar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

5. Boshqaruv tizimini takomillashtirish. Strategik rejalashtirish rahbar kadrlarning boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilishiga yordam beradi. Natijada tashkilot faoliyatida shaffoflik va mas'uliyat oshadi.

Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim: qonuniylik; ilmiy yondashuv; tizimlilik; hisobdorlik; natijaviylik.

Ushbu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan strategiya ichki ishlar organi faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Ichki ishlar organlari tizimida strategik rejalashtirish quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi:

Resurslarni optimallashtirish – inson kapitali, moliyaviy va texnik vositalarni eng muhim va xavf yuqori bo'lgan yo'nalishlarga safarbar etish.

Jinoyatchilikni prognozlash – kriminogen vaziyatni ilmiy tahlil qilish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqish.

Raqamli transformatsiya – tizimga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish.

Strategik rejalashtirishning samaradorligi "reja – ijro – nazorat – natija" zanjirining uzluksiz ishlashi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi va raqamli ichki ishlar organi loyihalari strategik boshqaruvning yorqin namunasidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ichki ishlar organlari faoliyatini isloh qilish, aholiga yaqin va xalqparvar tizimni shakllantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, profilaktika inspektorlari faoliyatini kuchaytirish, "Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida ishlash strategik boshqaruvning muhim yo'nalishlari hisoblanadi [3].

Shu bilan birga, ichki ishlar organlarida tahliliy faoliyatni kuchaytirish, prognozlash usullarini joriy etish va xalqaro tajribani o'rganish strategik rejalashtirish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, strategik rejalashtirish politsiya organlarini an'anaviy "reaktiv" (hodisaga javob qaytarish)

uslubidan "proaktiv" (oldindan chora ko'rish) uslubiga o'tkazadi [4].

AQSH va Kanada kabi rivojlangan davlatlarda yirik politsiya departamentlarining 55% dan ortig'i strategik rejalarga ega. Ular asosan jinoyatchilikni kamaytirish, jamiyat talablarini qondirish va xodimlarga ma'muriyat hamda jamiyat kutgan natijalarni yetkazish uchun qo'llaniladi.

Gonkongda strategik rejalashtirish politsiya tashkilotlariga kelajakdagi yo'nalishlarni belgilash, umumiy qarashga (vision) erishish va kelajakni shakllantirish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda strategik rejalar odatda 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan davrni qamrab olishi tavsiya etiladi. Xalqaro politsiya akademiyalari kabi tashkilotlar esa 10 yillik uzoq muddatli strategik rejalarni tuzadilar.

Ko'pchilik olimlar strategik rejalashtirishning ahamiyatini quyidagi jihatlar orqali asoslaydilar:

Murakkab muhitda qaror qabul qilish: strategik razvedka va rejalashtirish politsiya rolining oddiy qonun ijrochiligidan "inson xavfsizligi xatarlarini boshqarish"ga aylanishida muhim rol o'ynaydi.

Noaniqlikni kamaytirish: ichki ishlar organlari uchun strategik rejalashtirish kelajakdagi noaniqliklarni kamaytirish va tizimni doimiy rivojlanishda ushlab turish uchun zarur.

Resurslarni optimallashtirish: tadqiqotchilar fikricha, strategik rejalashtirish tashkilotning tashqi muhitga moslashishiga va cheklangan resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Maqsad va taktikaning uyg'unligi: Yu. Pulatov kabi mahalliy olimlarning fikriga ko'ra, strategik qarorlar asosiy muammolarga taalluqli bo'lib, ular taktik (operativ) rejalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi [5].

Strategik rejalashtirishning asosiy elementlari quyidagilar:

muhit tahlili: tashqi va ichki omillarni, aholining demografik va ijtimoiy holatini o'rganish;

maqsadlarni belgilash: uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlar va indikatorlarni (KPI) ishlab chiqish;

monitoring va baholash: erishilgan natijalarni shaffof ko'rsatkichlar asosida muntazam tahlil qilib borish.

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktyabrda qabul qilgan "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy

etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-201-son farmoni [6] va 2025-yil 29-dekabrda qabul qilgan "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-394-son qarori asosida Ichki ishlar vazirligida strategik rejalashtirish bo'linmasi tashkil etildi [7].

Ushbu bo'linma ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish faoliyatini muvofiqlashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini tashkillashtirish va ta'minlashga xizmat qiladi.

Aynan ushbu bo'linmaning tashkil etilishi ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim o'rin egalladi.

Shuningdek, bizningcha, tizimda quyidagilar amalga oshirish samarali natijalarga erishishga olib keladi:

1. Strategik rejalashtirishning zarurati va istiqbollari haqida barcha mas'ul xodimlarga tushuntirib borish, bu borada ularning malakasini oshirish.

2. Har bir chora-tadbirning samarali natija berishida strategik rejalashtirishning o'rni va ahamiyatini anglatuvchi video qo'llanmalar tayyorlash.

3. Muammoni aniqlash, uning yechimi bo'yicha chora-tadbirni belgilash, erishilgan natijani tahlil qilib borish.

4. Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish tartibi bo'yicha nizom yoki yo'riqnoma ishlab chiqish.

5. Joylarda faoliyat samaradorligi oshirish uchun muammoni aniqlash va uning yechimini topish maqsadida qisqa muddatli olti bosqichli ilmiy-tadqiqot o'tkazishni tashkil etish. Jumladan:

1-bosqich. Muammoni aniqlash va tadqiqot maqsadini shakllantirish. Davlatning ustuvor yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari hamda rivojlanish chaqiriqlari asosida strategik ahamiyatga ega muammoni aniqlash.

2-bosqich. Tadqiqot gipotezasi va vazifalarini belgilash. Tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish (maqsadlar, vazifalar, kutilayotgan natijalar, qo'l-

laniladigan usullar: sotsiologik tadqiqotlar, tizimli tahlil, ssenariyli tahlil va boshqalar).

3-bosqich. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish. Empirik tadqiqotlar o'tkazish (so'rovnomalar, intervyular, fokus-gruppalar) hamda "Raqamli platforma", geoaxborot tizimlari hamda davlat organlari hisobotlari ma'lumotlarini tahlil qilish.

4-bosqich. Yechimlarni modellashtirish va ssenariylarni ishlab chiqish. Rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish (optimistik, real, pessimistik, inqirozli/fors-major), strategik muqobil variantlar va tavsiyalarni shakllantirish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarni baholash.

5-bosqich. Tahliliy hujjat tayyorlash. Qaror qabul qilish uchun mo'ljallangan rezyumeni o'z ichiga olgan hisobotni shakllantirish (hujjat tuzilishi: muammo → tahlil → xorijiy tajriba → muqobil variantlar → tavsiyalar).

6-bosqich. Muvofiqlashtiruvchi kengashga taqdim etish. Materiallarni Muvofiqlashtiruvchi kengash ishchi guruhida ko'rib chiqish, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va milliy ustuvor yo'nalishlarga muvofiqligini ekspertizadan o'tkazish.

6. Faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida olti bosqichli tahliliy hujjat tayyorlash. Jumladan:

1-bosqich – tashabbus. Rahbariyat topshirig'i yoki strategik muammoni aniqlash, analitik markaz ish rejalariga kiritish va Muvofiqlashtiruvchi kengashda tasdiqlatish.

2-bosqich – topshiriqni shakllantirish. Hujjat konsepsiyasini tayyorlash (maqsad, asosiy savollar, ish hajmi, muddatlar).

3-bosqich – tadqiqot va tahlil. Tizimli tahlil, davlat siyosati tahlili, ssenariyli tahlil, SWOT, PESTLE va boshqa usullarni qo'llash.

4-bosqich – hujjatni tayyorlash. Tahliliy hujjatlarni qo'llanmada keltirilgan talablar asosida tayyorlash.

5-bosqich – ekspertiza va verifikatsiya. Ichki va tashqi ekspertizadan, zarur hollarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish.

6-bosqich – taqdim etish va himoya. Hujjatni Muvofiqlashtiruvchi kengash ishchi guruhlariga kiritish. Shuningdek, Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti va mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida tayyorlangan hujjat doirasida "aqliy hujum"ni o'tkazish. Hujjat takomillashtirilgach Muvofiqlashtiruvchi kengashga taqdim etish [8].

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquq-tartibotni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi. U faoliyat samaradorligini oshirish, resurslardan maqsadli foydalanish, jino-yatchilikning oldini olish va zamonaviy tahdidlarga munosib javob qaytarish imkonini beradi.

Shu bois, ichki ishlar organlari tizimida strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va ilmiy

asoslangan rejalashtirish usullaridan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish – jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning xavfsizligini kafolatlashning eng muhim omilidir. U rahbarlarga noaniq vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish va tizimning istiqboldagi qiyofasini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: "O'zbekiston", 2021. —22 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/3027843>
3. Ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili.
4. Rogers et al. (2020). Strategic planning practices in policing. https://www.researchgate.net/publication/373710124_Strategic_planning_practices_in_policing_evidence_from_the_field.
5. Pulatov Yu.S. va boshq. Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari. <https://www.yumpu.com/xx/document/view/41868351/>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktyabrdagi PF-201-son "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7806403>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrdagi PQ-394-son "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/7962933>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rejalashtirish va rivojlanish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilish bayonlari.

